



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
REKTORINING 38-F- SONLI BUYRUG‘I

2025-yil 14-fevral

Samarqand sh.

***Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi
38-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash
to’g‘risida***

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash hamda ushbu sohadagi ishlarning samaradorligini yanada oshirish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 22-avgustdagi “Oliy ta’lim sohasida korrupsiya xavfini kamaytirish yuzasidan 2024-2025 yillarga mo‘ljallangan Yo‘l xaritasi” 5-bandi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 13-yanvardagi apparat yig‘ilishi 3-son bayoni 9.4-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash to’g‘risida”gi 38-sonli buyrug‘i ma’lumot va ijro uchun;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash bo‘yicha tartib Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 38-sonli buyrug‘ining ilovasiga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish, Komplayens nazorat tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i H.Shakarovga:

har yili 10-dekabrga qadar institutda saqlanib qolinayotgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirishini;

har yili 20-dekabrga qadar kelgusi yilda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq amaliy ishlarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilishini ta’minlash;

Bunda, institutning funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarda inson omili saqlanib qolinayotgan sohalarni bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Devonxona mudiri (Sh.Djumabayev)ga mazkur buyruq hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 38-sonli buyrug'ini barcha prorektorlar, fakultet dekanlariga, bo'lim boshliqlariga hamda kafedra mudirlariga yetkazilishini ta'minlasin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor T.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 38-sonli buyrug'i.

Rektor



M.Po'latov